



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSONIY FAZILATLAR
VA BADIY MAHORAT TALQINI

Ibragimova Mashhura Mahmudjon qizi,

Urganch davlat universiteti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev ijodining o'ziga xos jihatlari, xususan, uning hikoyalarida aks etgan hayotiylik, insoniy fazilatlar va murakkab ruhiy kechinmalar tahlil qilinadi. Adibning "Yig'i" va "Tabassum" hikoyalari misolida sarlavha va mazmun o'rtasidagi uyg'unlik, obrazlar xarakteri hamda ijtimoiy muammolar yoritilishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, yozuvchining qisqa hajmli asarlarda chuqur ma'no ifodalash mahorati, kitobxonni voqealar ichiga olib kirish uslubi tahlil etiladi. Maqolada insoniylik, halollik, vijdon kabi tushunchalar qahramonlar orqali ochib berilib, adib ijodining bugungi kundagi dolzarbligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, hikoya, "Tabassum", "Yig'i", obraz, syujet, insoniy fazilatlar, badiiy mahorat, vijdon, halollik, ijtimoiy muammo, adabiyot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности творчества Shukur Xolmirzayev, в частности анализируются жизненность, человеческие качества и сложные духовные переживания, отражённые в его рассказах. На примере рассказов «Плач» и «Улыбка» раскрывается взаимосвязь между заголовком и содержанием, характеры образов, а также освещение социальных проблем. Также анализируется мастерство писателя в передаче глубокого смысла в малых жанрах и его способность вовлекать читателя в ход событий.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, рассказ, «Улыбка», «Плач», образ, сюжет, человеческие качества, художественное мастерство, совесть, честность, социальная проблема, литература.



Annotation. *This article analyzes the distinctive features of the мөвгечмө of Shukur Xolmirzayev, focusing on the depiction of realism, human qualities, and complex emotional experiences in his stories. Using the examples of "Cry" and "Smile," the relationship between title and content, character development, and social issues are examined. The study also highlights the writer's skill in conveying deep meaning within short narratives and his ability to immerse the reader in the events.*

Keywords: *Shukur Xolmirzayev, short story, "Smile," "Cry," character, plot, human values, artistic mastery, conscience, honesty, social issue, literature.*

O'zbek adabiyotini muttasil ishlab turadigan fabrikaga qiyos etish mumkin. Bu fabrikada kichik-kichik she'rlardan tortib katta-katta romanlargacha bo'lgan "mahsulotlar ishlab chiqariladi". Ammo bu mahsulotlar bir-biriga aslo o'xshamaydi. Har birining qolipi bo'lak.

O'zbek adabiyotiga o'zining "tansiq" ijod namunalari bilan kirib kelgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayevdir.

Biz Shukur Xolmirzayevni o'tkir syujetli hikoya va romanlar ustasi sifatida taniymiz va ularni o'qib chiqish mobaynida ijodkorning bir necha xususiyatlarni kashf etganmiz. Vodiyliklarga xos dangallik, cho'rtkesarlik, soddalik ufurib turadi uning asarlarida. Jumladan, " It-da, yaqin kelsang, minasi bilan otib tashlaydi" ("Yig'i"), " Sen qizillarning odamisan " ("Tabassum"), " - O'l, deyman o'zimga. Nega muncha qo'rqding? Xotining, bolalaring oldida sharmanda bo'lding?" ("Yashil "Niva"). Bundan tashqari ijodkor asarlarida turli jumboqli vaziyatlar, kishini fikrlashga majbur etadigan holatlar talaygina. "Sizlar O'zbekistondan kelib qolgan o'zbeklarmi?", " Ularni (Markazqo'm arboblari) adabiyotga olib kelib urish (to'g'rimikan)? " kabi misralar adibning yana bir qirrasini ko'rsatib beradi bizga. Shuningdek, hikoyada ilgari surilgan fikr qanchalik dolzarb va e'tibortalab bo'lmasin, yozuvchi uni to'liq holda kichik hajmdagi hikoyalarga "sig'dira olgan", kitobxonda asarning asosiy mazmunini ilg'ab olish qiyinchilik tug'dirmaydi. Shukur Xolmirzayev o'z asarlarini shunday katta mahorat bilan yozadiki, uni o'qish



davomida hech kim o'zini asar voqealaridan ayri holda tasavvur eta olmaydi, aksincha, kitobxon asarda tasvirga olingan hayotning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Uning asarlarini o'qiyotgan har bir inson qahramonlar tuyayotgan hisni tuyish barobarida yozuvchining shaxsiy kechinmalarini ham his qiladi. Bular yozuvchi asarlarining kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishiga asosiy sabablar bo'lsa, ajab emas.

Shukur Xolmirzayev ham xuddi Abdulla Qahhordek o'z asarlariga nom berishning ayri usulini tanlaydi. Darhaqiqat, asardagi voqealarning teng yarmini asar sarlavhasi aks ettirib turadi. Bundan bir necha yil ilgari kutubxonamizdagi ko'rgazmadan Shukur Xolmirzayev hikoyalarining nomlarini o'qib turar ekanman, ko'zim "Yig'i" va "Tabassum" so'zlariga tushdi. Ajabo, bu asarlarda qandaydir bog'liqlik bormi yoki bu, shunchaki, tasodifmi? Hoynahoy, biri ikkinchisining mantiqiy davomi bo'lsa kerak, deb kutubxonachimizga shu kitoblarni olmoqchi ekanligimni aytdim. Kutubxonachimiz nihoyatda mehribon ayol emasmi, darrov ikkala kitobga qo'shib, Shukur Xolmirzayev esselari to'plamini ham berib yubordilar.

Har ikkala hikoyani o'qib bo'lganimdan so'ng, muallif ularni nega bunday nomlagani haqida o'ylab qoldim. Nazarimda, hikoyalar sarlavhasi almashib qolgandek edi. "Yig'i" hikoyasida bosmachilarga qarshi kurash, Vatanga bo'lgan o'tli muhabbat haqida hikoya qilinadi. Bu - tabassumga sabab bo'luvchi holat. "Tabassum" hikoyasida esa rak kasalligiga chalinib, qachon olamdan o'tishini bilolmay yurgan Jalil ota haqida hikoya qilinadi - bu esa kishini qayg'uga soladigan holatdir. Ammo ushbu ikki hikoya haqida yozilgan maqolalarni, yozuvchining esselarini o'qish orqali shuni anglab yetdimki, Shukur Xolmirzayev o'quvchining diqqatini masalaga chuqurroq qaratish maqsadida sarlavhadan ijodkorona foydalangan.

"Tabassum" hikoyasi ham ijodkorning boshqa asarlari singari qiziqarli syujetga ega. Muallif bu asarida hech kimni qoralamaydi ham, yoqlamaydi ham. Kim yaxshi-yu, kim yomonligini asarni o'qiyotgan odam aniqlashini xohlaydi. O'ylab qaragam, u ushbu hikoyasida qahramonlarga ta'rif berish uchun birorta sifatdan ham foydalanmabdi. Ushbu asarning bosh qahramoni Jalil ota bo'lib, uning yolg'iz o'g'li



va nabirasi bor. Muallif uni quyidagicha ta'riflaydi: " Zero, oddiy ish.. xushomad qilish, kattalarga ta'zimda bo'lish, kezi kelganda, bir gapdan qolish ham... qo'ldan kelmaydi". U davosi yo'q dardga chalingandan buyon faqat bitta ilinjda - Sadafning to'yini ko'rish ilinjida yashaydi. Ammo unga bir obro'li xonadondan sovchi kelganida, nevarasini ularga uzatishni xohlamaydi, to'yga hamisha qarshilik qilib keladi. Boisi ushbu xonadon egasi Mo'minboy harom yo'llar bilan dunyo va obro' orttirgan kishi edi. U do'ppi tor kelib qolganda vaziyatdan chiqish uchun "kattalar"ga o'z do'stlarini yomonlab berishdan, o'z aybini ularga to'nkashdan hazar qilmaydigan kishi edi. Ushbu holat Jalil otaning ko'z o'ngidan ketmaydi : « — Manavi bola... — Mo'min burila solib, Jalilga o'qtaldi. — Chopib tashlayman. Bu ayg'oqchi, begim... Meni yo'ldan urdi..." Jalil ota Mo'minning yomon bo'lishiga asli zamondoshlari aybdor ekanligini yaxshi biladi. Ehtimol, "kattalar" uni chaqimchiligi uchun mukofotlamay, aksincha, unga tanbeh berganlarida u bunday yo'ldan qaytgan bo'lar edi. Mo'minboy bir vaqtlarda ayg'oqchiligi oshkor bo'lib qolmasligi uchun hatto Jalil otani o'ldirishga ha tayyor edi. O'g'li Shokir otasiga: " Axir, uni yomon ko'rsangiz — o'zingizga, lekin bizga ma'qul",- deb yolg'iz qizini Mo'minboyning xonadoniga kelin bo'lib tushirmoqchi bo'lganida, Jalil ota o'zi uchun tayyorlangan ovqatlarni yemay, to'kib tashlab o'z o'limini tezlashtirdi va u maqsadiga erishdi, umrining oxirigacha gapida sobit turdi. To'y arafasida olamdan o'tdi (o'zbeklarda janoza bo'lgan uyda biroz vaqtgacha to'y bo'lmasligi lozim). " Hammani dahshatga solgan narsa Jalil otaning yuzida qotib qolgan tabassum bo'ldi". Anglaganimizdek, Jalil ota nafratlangan insoni bilan kurashishda o'z o'limini ham ishga soldi...

Men ushbu asardagi Qyun Qo'rboshini laqaylar boshlig'i Ibrohimbekka o'xshataman. Sababi u ham xuddi Ibrohimga o'xshab butun xalqining g'urur-iftixori! Bir qarasangiz, dunyoda undan-da jahldor, undan-da qattiqqo'l inson yo'qday tuyuladi. Bir qarasangiz esa, hech kim u kabi saxiy, zehqli, mehribon emas. Uning " — E, Mo'minboy-ey! Tashqarida nari borsa, ikki og'iz gaplashdilaring, shunda aldab oldimi?» - degan gapidan unga xos barcha xususiyatlar (zehnlilik, mehribonlik, oqko'ngillik, rostgo'ylik, adolatlilik va boshqalar) ayon bo'lgan. Dunyoda qilmagan ishini " Qilganman" deb kerilib yuradigan "Mo'minboy"lar ko'p. Ayniqsa, ular qadr



topib, Quyun qo'rboshideklar og'ir jazoga tortilgani g'oyatda achinarli hol. U o'zining qanday inson ekanligini o'z tili bilan aytishni or deb biladi, aynan shuning uchun ham " Meni bozorda sud qilinglar", ya'ni meni kimligimni xalq aytsin, deydi. Shukur Xolmirzayev esselarining birida shunday deydi: " To'g'ri, bizdan geroylar kam chiqdi... Lekin geroylik berish bizning qo'limizda emas edi". Agar bu chindan ham bizning qo'limizda bo'lganida edi, Quyun qo'rboshi bunga eng yaxshi nomzod bo'lar edi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev. Saylanma asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, turli yillar.
2. Shukur Xolmirzayev. Tabassum va boshqa hikoyalar. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Shukur Xolmirzayev. Yig'i. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Abdulla Qahhor. Asarlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
7. Ilmiy maqolalar va adabiy tanqidiy manbalar (internet va jurnallar orqali)